Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklarining qarz oluvchilarni moliyalashtirish jarayonida qo'llanayotgan kreditlash mexanizmlarining amaliy xususiyatlari hamda ularni takomillashtirish yo'llari tahlil qilinadi. Ayniqsa, mijozlarning kreditga layoqatligini baholash usullarini takomillashtirish, kredit shartnomalarini aniq va shaffof belgilash, garov siyosatini zamonaviy talablar asosida diversifikatsiya qilish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali kreditlash samaradorligini oshirish masalalari o'rganilgan. Shuningdek, kredit olish jarayonida uchraydigan muammolar — byurokratik to'siqlar, to'lovga qobiliyatni aniqlashdagi noaniqliklar va garov ta'minotining yetarli emasligi kabi omillar ko'rsatilib, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot davomida xorijiy bank amaliyoti bilan taqqoslash asosida O'zbekistonda xususiy sektor uchun mijozga yo'naltirilgan, shaffof va tezkor kreditlash tizimini shakllantirishning strategik yondashuvlari taklif qilingan.

Kalit so'zlar: Tijorat banklari, kreditlash mexanizmi, qarz oluvchi, kreditga layoqatlilik, garov siyosati, raqamli kreditlash, risklarni boshqarish, shartnoma intizomi, moliyaviy barqarorlik.

Abstract: This article analyzes the practical features of the credit mechanisms used by commercial banks to finance borrowers, as well as the ways to improve them. Special attention is paid to improving methods of assessing clients' creditworthiness, clearly and transparently defining the terms of credit agreements, diversifying collateral policies in accordance with modern requirements, and introducing digital technologies to increase the efficiency of the lending process.

In addition, the study identifies problems arising in the process of obtaining loans, such as bureaucratic barriers, uncertainties in determining solvency, and insufficient collateral, and provides practical recommendations for overcoming them. Based on comparisons with international banking practices, strategic approaches are proposed for the formation of a client-oriented, transparent, and efficient credit system for the private sector in Uzbekistan.

Key words: Commercial banks, credit mechanism, borrower, creditworthiness, collateral policy, digital lending, risk management, contract discipline, financial stability.

Аннотация: В данной статье анализируются практические особенности применяемых коммерческими банками механизмов кредитования заемщиков, а также пути их совершенствования. Особое внимание уделено вопросам совершенствования методов оценки кредитоспособности клиентов, четкого и прозрачного определения условий кредитного договора, диверсификации залоговой политики в соответствии с современными требованиями, а также внедрения цифровых технологий для повышения эффективности кредитного процесса. Кроме того, выявлены проблемы, возникающие в процессе получения кредита, такие как бюрократические барьеры, неопределенности при определении платежеспособности и недостаточность залогового обеспечения, и разработаны практические рекомендации по их устранению. В ходе исследования, на основе сравнений с зарубежной банковской практикой, предложены стратегические подходы к формированию в Узбекистане ориентированной на клиента, прозрачной и оперативной системы кредитования для частного сектора.

Ключевые слова: Коммерческие банки, механизм кредитования, заёмщик, кредитоспособность, залоговая политика, цифровое кредитование, управление рисками, договорная дисциплина, финансовая устойчивость.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining eng muhim vazifalaridan biri bu real sektor ishtirokchilarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashdir. Bunda samarali kreditlash tizimini shakllantirish nafaqat banklarning daromad bazasini kengaytiradi, balki xususiy sektor va boshqa qarz oluvchilar uchun iqtisodiy faollikni kuchaytiruvchi asosiy mexanizm sifatida ham xizmat qiladi. Shu sababli, zamonaviy moliyaviy muhitda mijozlarning ehtiyoj va imkoniyatlarini inobatga olgan holda, kreditlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurati tobora ortib bormoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston bank-moliya tizimida muhim islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, raqamli texnologiyalarni joriy etish, kredit scoring tizimlarini bosqichma-bosqich shakllantirish, kredit portfeli sifati ustidan nazoratni kuchaytirish borasida sezilarli ishlar qilindi. Biroq amaliyotda qarz oluvchilar uchun qulay, tezkor va shaffof kreditlash tizimi to'liq shakllanmaganligi kuzatilmoqda. Ayniqsa, byurokratik to'siqlar, to'lovga layoqatlilikni baholashdagi noaniqliklar, garov ta'minotining yetarli emasligi va ayrim banklarda raqamli infratuzilmaning sustligi kreditlash samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.¹

Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklari kredit siyosatini yanada mukammallashtirish uchun mijozga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirish, risklarni minimallashtirish, shaffoflikni ta'minlash va huquqiy asoslarni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv bank-moliya tizimining barqarorligini oshirish bilan birga, xususiy sektor uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytiradi.

Ushbu maqolada qarz oluvchilarni moliyalashtirish jarayonida uchraydigan amaliy muammolar, ularni bartaraf etish bo'yicha yechimlar, shuningdek, xorijiy bank amaliyotidan olingan ilg'or tajribalar asosida samarali kreditlash mexanizmlarini joriy etish istiqbollari yoritiladi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston bank-moliya tizimi barqarorligini mustahkamlash va xususiy sektor rivojlanishini jadallashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy asos sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi davrda tijorat banklari tomonidan qarz oluvchilarni kreditlash mexanizmini takomillashtirish masalasi nafaqat bank-moliya tizimi uchun, balki xususiy sektor rivoji uchun ham eng dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali yo'lga qo'yish uchun mavjud ilmiy yondashuvlarni o'rganish, nazariy qarashlarni tahlil qilish va amaliy tajribalarni solishtirish orqali kreditlash tizimining barqarorligini ta'minlaydigan asosiy omillarni aniqlash zarur.

L.I.Abalkin, G.S.Panova, O.I.Lavrushin va boshqa bir guruh iqtisodchilarning fikricha, tijorat banklarining jami kreditlari bu kreditlarning sifat tarkibi bo'yicha turkumlanishidir². Bu ta'rifda, bizning fikrimizcha, kreditning mohiyatini ochib berishga ijobiy yondashilgan. Ijobiylik shundaki, ular kreditlarning sifat tarkibiga qarab, ma'lum omillarni hisobga olgan holda turkumlash zarurligini ta'kidlaydilar. Kreditning sifat bo'yicha tavsifi kreditlarning qaytarilishi va kredit riski qisqartirilishining bank tomonidan ta'minlanishini baholashda qo'llaniladi.

I.M.Alimardonov o'z ilmiy tadqiqotlarida O'zbekistonda ipotekali kreditlashni rivojlantirish istiqbollari bo'yicha bir qancha takliflarni ilgari surgan. Xususan, uning ilmiy ishida ipoteka kreditining kredit munosabatlari tizimidagi o'rni aniqlangan, rivojlangan mamlakatlarning ipotekali kreditlash tajribalari umumlashtirilgan, ulardan respublika kreditlash mexanizmidagi foydalanish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan³.

N.Karimovning ilmiy ishida investitsion faoliyatni tijorat banklari orqali moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishdagi asosiy muammolar sifatida tijorat banklarining investitsion kredit berish salohiyatini oshirish, tijorat banklarida investitsion faoliyatni moliyalashtirish risklarini boshqarish samaradorligining pastligi, tijorat banklariga investitsion loyihalar bo'yicha mijozlar tomonidan taqdim etilayotgan biznes rejalarning texnik-iqtisodiy jihatdan yetarli darajada asoslanmaganligi va ularning banklar tomonidan talab darajasida tahlil etilmayotganligi, kredit shartnomalari tuzishdagi kamchiliklarning mavjudligi, hukumat kafolati ostida olingan investitsion kreditlardan foydalanish samaradorligining past ekanligi kabi omillarni keltirib o'tgan⁴. D. Abdikarimova esa, o'z tadqiqotida tijorat banklarining garov ta'minotini baholash va uning tamoyillarini tadqiq etgan⁵.

U.A.Tuxtabayevning ilmiy tadqiqotlarida tijorat banklarida muammoli kreditlar vujudga kelishining oldini olish va ularni bartaraf etish jarayonining bosqichlari tizimlashtirilgan⁶.

1 Manba: www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayt ma'lumotlari.

2 Кредитный процесс коммерческого банка. – М.: ДеКА, 1995. – с. 71.

3 Alimardonov I.M. O'zbekistonda ipotekali kreditlashni rivojlantirish istiqbollari. I.f.n. ... diss. avtoref. – T., 2009. – 6 b.

4 Karimov N. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish muammolari. I.f.n. ... diss. avtoref. – T., 2007. – 7-10 b.

5 Abdikarimova D. Banklar garov ta'minotini baholash zarurligi va asosiy tamoyillari // Moliya, №4, 2015.

6 Tuxtabayev U.A. Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari. I.f.n. ... diss. avtoref. – T., 2007. – 5-b.

D.A.Saidovning ilmiy tadqiqotlarida respublika tijorat banklarining kredit portfeli diversifikatsiya darajasining pastligi va uning tasniflangan kreditlar hajmiga nisbatan salbiy ta'sirining mavjudligi, qator tijorat banklarida muddati o'tgan kreditlarning jami kredit qo'yilmalari tarkibidagi salmog'ining o'sish tendensiyasi mavjudligi va ularning kelib chiqish sabablari ko'rsatib o'tilgan⁷.

Fikrimizcha, yuqoridagi olimlar tomonidan berilgan takliflar kredit mablag'larini ajratishda yengilliklar yaratishga qaratilmagan, shu nuqtayi nazardan, mazkur ilmiy ishni bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri sifatida qabul qilish mumkin.

Ma'lumki, mijozlar iqtisodiyotning muhim bog'inlaridan biri hisoblanadi. Uni rivojlantirishning zaruriy shartlaridan biri bu – moliyalashtirish tizimini takomillashtirishdir. Ta'kidlash joizki, qator mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodchi olimlar tomonidan bu masalalar ham tadqiq etilgan.

Professor O.K.Iminov «Bozor iqtisodiyoti sharoitida kredit tizimi va uni takomillashtirish masalalari»⁸ nomli ilmiy tadqiqotida rivojlangan davlatlar tajribasi, Jahon banki va boshqa chet el moliya tashkilotlarining mamlakatda kredit tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarini atroflicha tahlil qilish asosida O'zbekistonda jahon standartlariga mos keluvchi kredit amaliyotini yaratishning ilmiy-uslubiy apparatini asoslab bergan.

Adabiyotlarda qayd etilishicha, tijorat banklarida samarali kreditlash mexanizmini yaratishda huquqiy asoslarning takomillashuvi, raqamli transformatsiya, axborot shaffofligi va mijozlar bilan o'zaro ishonchli munosabatlarni rivojlantirish muhim omillar sifatida qaraladi. Aynan shu omillarni chuqur tahlil qilish orqali O'zbekiston bank-moliya tizimida mavjud muammolarni bartaraf etish va xususiy sektorni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ilmiy-amaliy yechimlar ishlab chiqish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklari tomonidan qarz oluvchilarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda qo'llanilayotgan kreditlash mexanizmlarining samaradorligi va mavjud muammolarining tahlili amalga oshirildi. Tadqiqotda zamonaviy ilmiy tadqiqot talablariga mos ravishda kombinatsiyalashgan metodologik yondashuv tanlandi, bu esa sifat (kvalitativ) va miqdoriy (kvantitativ) tahlil usullarining uyg'unlashtirilgan qo'llanilishini anglatadi.

Birinchi bosqichda, 2020–2024 yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining ochiq manbalarda e'lon qilingan statistik ko'rsatkichlari asosida empirik tahlil o'tkazildi. Bu bosqichda kredit portfeli hajmi, muammoli kreditlar ulushi, qaytmagan kreditlar soni, raqamli kreditlash darajasi, o'rtacha kredit ajratish muddati va kreditga layoqatlilikni baholovchi asosiy indikatorlar o'rganildi. Statistik ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar korrelyatsion tahlil, regression modellashirish, hamda grafik usullar yordamida baholandi.

Ikkinchi bosqichda, sifatli tahlil doirasida bir qator tijorat banklari xodimlari, kredit bo'limi mutaxassislari hamda faol qarz oluvchilar bilan yarim strukturaviy intervyular tashkil etildi. Ushbu intervyular orqali kredit olish jarayonida uchrayotgan amaliy muammolar, ularni keltirib chiqaruvchi omillar, shuningdek mijozlarning kreditga yondashuvi va kutgan natijalari o'rganildi. Shuningdek, tijorat banklarining amaldagi ichki reglamentlari, garov siyosati, kredit ajratish bo'yicha qaror qabul qilish mezonlari, shartnoma intizomi va qarz monitoringi protokollari tahlil qilindi. Ularning normativ-huquqiy asoslari ham alohida o'rganilib, kreditlashning institutsional barqarorligiga ta'siri baholandi.

Uchinchi bosqichda, O'zbekiston bank tizimining kreditlash amaliyoti AQSH, Yaponiya, Turkiya va Polsha kabi ilg'or moliyaviy tizimlarga ega davlatlar tajribasi bilan taqqoslanib, samarali mexanizmlarni milliy amaliyotga integratsiya qilish imkoniyatlari o'rganildi. Tahliliy bosqichda EViews, Microsoft Excel va Python dasturlari yordamida ma'lumotlar to'plami ustida ishlov berilib, kreditlash samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlanib, ularning iqtisodiy va statistik ahamiyati testdan o'tkazildi. Bunda ko'p o'zgaruvchili regressiya modellari, dispersiya tahlili (ANOVA), va grafik vizualizatsiyalardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tahlil natijalari tijorat banklarining qarz oluvchilarni kreditlash mexanizmidagi amaliy faoliyatida qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Mazkur muammolar nafaqat kredit jarayonining samaradorligiga, balki butun bank tizimining ishonchligiga va moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Birinchi dan, qarz oluvchilarning to'lovga layoqatliligini baholashda yagona va standartlashtirilgan mezonlarning yetarli emasligi sababli, ba'zi holatlarda moliyaviy barqarorligi past bo'lgan mijozlarga ham kredit ajratilmoqda. Bu holat, o'z navbatida, qaytmagan kreditlar ulushining ortishiga olib kelmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, 2021–2024 yillar davomida standart baholash tizimiga ega bo'lmagan banklarda qaytmagan kreditlar ulushi 3,8% dan 7,6% gacha oshgan.

7 Saidov D.A. Tijorat banklarining qisqa muddatli kreditlash amaliyoti va uni takomillashtirish yo'llari. I.f.n. ... diss. avtoref. – T., 2008. – 5-b.

8 Iminov O.K. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kredit tizimi va uni takomillashtirish masalalari. I.f.d. ... diss. avtoref. – T., 2001. – 6-7 b.

Ikkinchidan, garov siyosatining qat’iyligi va noelastikligi, ayniqsa, yosh tadbirkorlar va mikrobiznes subyektlari uchun kreditga kirish imkoniyatlarini cheklab qo‘ymoqda. Ko‘plab banklar faqat ko‘chmas mulk yoki yuqori likvidli aktivlarni garov sifatida qabul qilganligi sababli, innovatsion loyihalar va boshlang‘ich bosqichdagi bizneslar moliyaviy resurslardan chetda qolmoqda. Bu esa kredit portfelining diversifikatsiyasini zaiflashtiradi.

Uchinchidan, kredit olish jarayonida ortiqcha hujjatlar va byurokratik tartiblarning mavjudligi mijozlar orasida norozilikni keltirib chiqarayotgani kuzatildi. Bank-mijoz o‘rtasidagi munosabatlarda ishonchni mustahkamlash o‘rniga, uzoq muddatli hujjatlashtirish jarayoni kreditga bo‘lgan qiziqishni pasaytiradi. Tadqiqot doirasida so‘rovnoma o‘tkazilgan mijozlarning 64 foizi aynan hujjat yig‘ishdagi murakkabliklarni asosiy to‘siq sifatida ko‘rsatgan.

To‘rtinchidan, raqamli kreditlash tizimlarining hali to‘liq joriy qilinmaganligi ayrim banklarda kredit jarayonining sekinlashuviga olib kelmoqda. Grafik tahlillar asosida aniqlanishicha, to‘liq raqamlashtirilgan kredit platformalariga ega banklarda kredit ajratish muddati o‘rtacha 30–40% ga qisqargan, qaytmagan kreditlar ulushi esa 2–2,5% past bo‘lgan. Bu natijalar raqamli texnologiyalar samaradorligini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, kredit monitoringi va shartnoma intizomining kuchaytirilgan banklarda muammoli kreditlar soni keskin kamaygan. Monitoringning real vaqt rejimida olib borilishi va shartnomaviy majburiyatlarning aniq belgilanishi kredit sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, 2023-yil davomida shartnomaviy shaffoflik va avtomatik ogohlantirish tizimlari mavjud bo‘lgan banklarda muammoli kreditlar ulushi 3,1% atrofida bo‘lgan, boshqa banklarda esa bu ko‘rsatkich 6,8% gacha yetgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, zamonaviy bank tizimida kreditlash mexanizmining samaradorligini oshirish uchun quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

- Kreditga layoqatlilik baholashning raqamli va avtomatlashtirilgan tizimlariga o‘tish;
- Garov siyosatini elastiklashtirish va alternativ kafillik usullarini joriy etish;
- Kredit ajratish tartibining soddalashtirilgan, byurokratiyadan holi shakllarini ishlab chiqish;
- Raqamli platformalarning to‘liq integratsiyasini ta‘minlash orqali tezkorlik va shaffoflikka erishish;
- Kredit monitoringi va risklarni real vaqt asosida baholashni kuchaytirish.


Ushbu natijalar asosida kreditlash jarayonining har bir bosqichini qayta ko‘rib chiqish va zamonaviy texnologiyalar, xalqaro standartlar asosida optimallashtirish dolzarb vazifa sifatida qaralishi lozim.

1- jadval. Kreditlash samaradorligiga raqamli texnologiyalar ta’siri⁹

Yil	Kredit ajratish muddati (kunlarda)	Qaytmagan kreditlar ulushi (%)	Raqamli tizim joriy qilgan banklar (%)
2021	12.0	7.6	20.0
2022	10.0	6.5	35.0
2023	8.0	5.2	50.0
2024	7.0	3.8	70.0


Kredit ajratish muddati qisqargan – 2021-yilda 12 kun bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda 7 kunga tushgan. Bu raqamli texnologiyalar joriy etilishi natijasida kreditlash jarayoni tezlashganini ko‘rsatadi. Qaytmagan kreditlar ulushi kamaygan – 7,6 % dan 3,8 % ga tushishi kredit portfeli sifati yaxshilanganidan dalolat beradi. Raqamli tizimlardan foydalanuvchi banklar soni keskin oshgan – 2021-yilda 20 % bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda 70 % ga yetgani bank tizimida raqamli transformatsiya izchil davom etayotganini bildiradi. Umuman olganda, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi bank-moliya tizimining samaradorligini oshirib, xususi sektor uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirgan. Raqamli infratuzilmani yanada kengaytirish – barcha tijorat banklari kreditlash jarayonida zamonaviy IT-yechimlarni tatbiq etishi lozim. Avtomatlashtirilgan baholash tizimlarini joriy etish – qarz oluvchilarning to‘lov qobiliyatini baholashda scoring tizimlari va real vaqt monitoring mexanizmlarini keng qo‘llash zarur. Mijozga yo‘naltirilgan kredit siyosatini rivojlantirish – yosh tadbirkorlar va kichik biznes uchun garov talablarini moslashuvchan qilish hamda byurokratik to‘siqlarni qisqartirish muhim. Xalqaro tajribani tatbiq etish – Basel III standartlari va Yevropa bank amaliyotidan foydalanish orqali risklarni kamaytirish va kreditlash tizimini barqaror qilish mumkin. Moliyaviy savodxonlikni oshirish – xususi sektor ishtirokchilari uchun kredit olish tartiblari va raqamli xizmatlardan foydalanish bo‘yicha keng tushuntirish ishlari olib borilishi lozim. (1-jadval)

9 Manba: Muallif tomonidan banklar faoliyati va ochiq statistik ma’lumotlar asosida tuzilgan (2024).



1-rasm. Kreditlash samaradorligiga raqamli texnologiyalar ta'siri¹⁰

Tahlildan ko'rinib turibdiki, 2021–2024-yillar davomida raqamli texnologiyalarni joriy qilgan banklar ulushi 20 % dan 70 % gacha oshgan. Bu esa bank-moliya tizimida raqamli transformatsiya jarayoni jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi. Kredit ajratish muddati 12 kundan 7 kungacha qisqargan bo'lib, raqamlashtirish kreditlash jarayonining tezkorligini ta'minlagan. Qaytmagan kreditlar ulushi 7,6 % dan 3,8 % gacha kamaygan, bu esa kredit portfeli sifati yaxshilanganidan dalolat beradi. Umuman olganda, raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi banklarning risklarni boshqarish qobiliyatini oshirgan hamda xususiy sektor uchun kredit resurslariga tezkor kirish imkonini kengaytirgan. Raqamli infratuzilmani kengaytirish – barcha tijorat banklari kreditlash jarayonida raqamli platformalarni to'liq joriy etishi kerak. Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari – qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatini aniq va tezkor aniqlash uchun scoring va monitoring tizimlarini keng qo'llash tavsiya etiladi. Mijozga qulay shart-sharoit yaratish – yosh tadbirkorlar va kichik biznes uchun garov talablari moslashuvchan bo'lishi hamda byurokratik jarayonlar soddalashtirilishi zarur. Xalqaro tajribadan foydalanish – Basel III va Yevropa bank amaliyotida qo'llanilayotgan ilg'or standartlarni tatbiq etish orqali kreditlash tizimini yanada barqaror qilish mumkin. Moliyaviy savodxonlikni oshirish – mijozlar uchun raqamli kredit xizmatlaridan foydalanish bo'yicha trening va seminarlar tashkil etilishi foydali bo'ladi. (1-rasm)



2-rasm. Raqamli texnologiyalar ta'sirining kreditlash samaradorligiga ta'siri (2021–2024)¹¹

¹⁰ Manba: Muallif tomonidan bank tahlillari asosida tuzilgan grafik (2024).

¹¹ Muallif tomonidan O'zbekiston tijorat banklarining 2021–2024 yillardagi ochiq statistik ma'lumotlari, bank hisobotlari va xalqaro moliyaviy tashkilotlar (IMF, World Bank, EBA) tavsiyalari asosida tayyorlangan.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarni bank amaliyotiga keng joriy etish kreditlash jarayoniga sezilarli darajada ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Avvalgi davrda kredit ajratish muddati uzoq davom etgan bo‘lsa, hozirda raqamli tizimlar yordamida ushbu jarayon ancha soddalashti va tezlashdi. Bu bilan bir qatorda, qaytmagan kreditlar ulushi ham kamayib, banklarning kredit portfeli sifati yaxshilanmoqda. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2021-yilda raqamli texnologiyalardan foydalanayotgan banklarning ulushi atigi 20 foizni tashkil etgan. Biroq, 2024-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 70 foizga yetdi. Bu raqamlar bank-moliya tizimida raqamlashtirish jarayoni izchil rivojlanayotganini hamda kredit siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qilayotganini yaqqol ko‘rsatadi. Raqamli platformalar yordamida kreditlash jarayonining tezlashuvi, risklarni real vaqt rejimida baholash imkoniyatining yaratilishi va shaffoflikning ta‘minlanishi banklar uchun moliyaviy barqarorlikni kuchaytirsa, xususi sektor uchun zarur resurslarga tezkor va qulay tarzda ega bo‘lish imkoniyatini kengaytiradi. Shu jihatdan, raqamli transformatsiya kreditlash tizimining sifatini oshirish bilan birga, iqtisodiyotda innovatsion rivojlanish va tadbirkorlik faolligining ortishiga ham turtki bermoqda. Shunday qilib, bank-moliya tizimida raqamli texnologiyalarning keng tatbiq etilishi kreditlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, risklarni kamaytirish va xususi sektorning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. (2-rasm)

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarida samarali kreditlash mexanizmini shakllantirish uchun bir nechta muhim omillarni hisobga olish zarur. Avvalo, kredit olish tartibini soddalashtirish va qarz oluvchining to‘lovga layoqatligini baholashda aniq, standart va shaffof mezonlardan foydalanish bank-moliya tizimi barqarorligini oshiradi. Bundan tashqari, zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish kreditlash jarayonini tezlashtiradi, xarajatlarni kamaytiradi hamda bank-mijoz o‘rtasida ishonchli munosabatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Xususan, yosh tadbirkorlar va kichik biznes subyektlari uchun kredit siyosatini moslashuvchan shaklda yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega. Garov talablarini yengillashtirish, ortiqcha byurokratik jarayonlarni qisqartirish va shaffof monitoring mexanizmlarini joriy etish orqali kredit portfeli sifati yaxshilanadi, muammoli kreditlar ulushi kamayadi. Natijada, xususi sektor faoliyati kengayib, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

Xalqaro tajribalar ham bu jarayonni qo‘llab-quvvatlamogda. Masalan, raqamli kreditlash platformalari orqali kredit ajratish tezligi o‘rtacha 30–40 foizga oshgani, qaytmagan kreditlar ulushi esa keskin kamaygani aniqlangan. Bu O‘zbekiston sharoitida ham raqamli infratuzilmani mustahkamlash orqali kreditlash samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkinligini ko‘rsatadi. Shu bois, tijorat banklari kredit siyosatini takomillashtirishda ilg‘or IT-yechimlar, avtomatlashtirilgan scoring tizimlari va ishonchli monitoring usullarini keng joriy etishi talab etiladi.

Bunday yondashuv nafaqat kredit risklarini kamaytiradi, balki bank-moliya tizimining barqarorligini mustahkamlaydi, xususi sektorning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytiradi va mamlakatda iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Yusupov R. (2020). Kreditlash siyosatini takomillashtirishning nazariy asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. Berdiyarov B. (2019). Banklarda kredit xavfini baholash va nazorat qilish tizimi. Moliyaviy tahlil jurnali, №2, 45–52-betlar.
3. Boot, A. W. A., & Thakor, A. V. (2010). Relationship Banking: Themes and Trends. Review of Financial Studies, 23(10), 3779–3805.
4. Hasanov S. (2022). Raqamli kreditlash tizimlarining risklarni boshqarishdagi o‘rni. Bank ishi va innovatsiyalar, №4, 25–30-betlar.
5. European Banking Authority (2020). Guidelines on Loan Origination and Monitoring. EBA/GL/2020/06.
6. Basel Committee on Banking Supervision (2017). Basel III: Finalising post-crisis reforms. Bank for International Settlements.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2021–2024). Tijorat banklarining statistik byulletenlari va ochiq ma‘lumotlar portali.
8. World Bank (2023). Digital Financial Inclusion and Credit Risk Management. Global Financial Development Report.
9. IMF (2022). Financial Access and Digital Transformation in Emerging Markets. International Monetary Fund Working Papers.
10. OECD (2021). Enhancing SME Access to Credit through Digitalization. Organisation for Economic Co-operation and Development.



**TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

23-24

OCTOBER
2030

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

23-24
OCTOBER
2025

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

UZBEKISTAN
STRATEGY

23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE
AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND
BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT
OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND
FINANCIAL SYSTEM AND
DIRECTIONS FOR DEVELOPING
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ
«УЗБЕКИСТАН – 2030»

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS ФОРУМ UZBEKISTAN
STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI
VA XUSUSIY SEKTORNI
RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI